
“O‘ZBEKNEFTGAZ” SHOXOBCHALARIDA AI-80 BENZINI NARXI 6800 SO‘MDAN 5700 SO‘MGA TUSHADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “AI-80 rusumli avtobenzin mahsulotini aksiz solig‘idan ozod qilish bo‘yicha” QARORI qabul qilindi

Qarorda quyidagilar nazarda tutilmoqda:

2022 yil 10 dekabrda 2023 yil 1 martga qadar import qilinadigan, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan va tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan yakuniy iste‘molchilarga sotiladigan AI-80 rusumli avtobenzin mahsuloti uchun, istisno tariqasida, aksiz solig‘ini “nol” stavkada qo‘llash.

Natijada AI-80 rusumli avtobenzin mahsulotining chakana narxi amaldagi narxlarga nisbatan o‘rtacha 8,7 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, aksiz solig‘ining vaqtincha qo‘llanilmasligi natijasida aholi va tadbirkorlar ixtiyorida 213,7 mlrd so‘m mablag‘ qoladi.

2022 yil 10 dekabrda 2023 yil 1 aprelga qadar “O‘zneftgazinspeksiya” va “O‘zenergoinspeksiya” tomonidan, istisno tariqasida, Biznes ombudsman bilan kelishilmasdan tadbirkorlik sub‘ektlarini ularning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga aralashmagan holda energiya resurslaridan noqonuniy va samarasiz foydalanish holatlarini tekshirishga ruxsat berilmoqda.

Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi o‘tkaziladigan tekshiruvlar natijalari bo‘yicha avtobenzin mahsulotlarining ortiqcha yo‘qotishlariga va talon-tarjliklarga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan jazo choralarini qo‘llash, shuningdek, ularning faoliyatiga huquqiy baho berish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdimnomalar kiritib boriladi.

Ushbu qarorning qabul qilinishi, kuz-qish mavsumida iste‘molchilarning avtobenzin mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘z vaqtida ta‘minlash, ularning narxlarini barqarorlashtirish hamda aholining ortiqcha sarf-xarajatlarini qisqartirishga olib keladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-13 09:30:31